


**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2020- yil yanvar)


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 2020- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 444,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 2,7 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 46,6 mlrd. so'mni (2019- yilning shu davriga nisbatan 22,2 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 397,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 44,0 mlrd. so'mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 102,5 %) tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**



2019- yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Beruniy, To'rtko'l, Taxiatosh va Qo'ng'irot tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (% da)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (respublika umumi hajmiga nisbatan ulushi - 30,2 %), Beruniy (10,2 %), Xo'jayli (9,5 %), To'rtko'l (9,1 %) va Qo'ng'irot (7,5 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan 22,2 % ga kamaydi va 46,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumi savdo hajmining 10,5 % iga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 397,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar oyiga nisbatan 6,7 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,5 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (% da)

2019- yil
yanvar




2020- yil
yanvar



Yirik korxonalar
 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, (% da)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
 Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Bo'zatov (100,0 %), Qonliko'l (99,8 %), Qorao'zak (99,6 %), Shumanoy (99,6 %) va Kegayli (99,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (24,9 %), Taxiatsosh (17,8 %) va To'rtko'l (10,7 %) tumanlarida kuzatilgan.

**Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	46 649,3	77,8	397 721,7	106,7
<i>Shahar va tumanlar:</i>				
Amudaryo	1 656,7	97,0	29 529,6	103,9
Beruniy	1 099,2	101,7	44 201,6	104,1
Bo'zatov	-	-	1 798,1	100,5
Qonliko'l	22,4	47,9	10 629,9	101,0
Qorao'zak	57,8	94,7	13 253,0	100,0
Kegayli	45,0	82,8	9 659,0	100,3
Qo'ng'iroq	1 173,3	80,4	32 255,0	113,9
Mo'ynoq	44,5	107,5	2 827,9	102,0
Nukus	58,4	85,7	8 354,7	102,8
Taxiatsosh	1 922,9	93,9	8 884,7	109,0



Taxtako'pir	504,7	4,1 b.	10 233,3	99,3
To'rtko'l	4 343,7	122,2	36 143,4	104,2
Xo'jayli	998,3	91,5	41 435,2	102,5
Chimboy	769,6	113,1	15 160,9	101,6
Shumanoy	37,8	43,1	8 648,4	101,8
Ellikqal'a	589,9	99,6	23 984,1	102,5
Nukus sh.	33 325,2	70,6	100 723,0	115,9

2020- yil yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 235,9 ming so'mni tashkil qilib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 1,2 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning yanvar oyida 2019-yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o'sish qayd etilib, eng yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri (422,5 ming so'm), Xo'jayli (348,1 ming so'm) va Taxtako'pir (268,4 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Mo'ynoq (91,2 ming so'm), Kegayli (134,4 ming so'm) va Chimboy (142,5 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika shahar va tumanlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Hajmi (Ming so'm)	2019- yilning mos davriga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	235,9	101,2

Shahar va tumanlar:

Amudaryo	158,1	101,6
Beruniy	239,1	101,9
Bo'zatov	-	-
Qonliko'l	210,1	99,4
Qorao'zak	253,1	99,2
Kegayli	134,4	123,8
Qo'ng'irot	258,9	111,0
Mo'ynoq	91,2	100,5
Nukus	169,3	100,4
Taxiatosh	147,4	104,6
Taxtako'pir	268,4	102,5
To'rtko'l	190,7	103,9
Xo'jayli	348,1	100,9
Chimboy	142,5	104,5
Shumanoy	155,4	100,3
Ellikqal`a	155,9	100,5
Nukus shahri	422,5	98,6


Jumladan, 2020- yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,2 % ni tashkil etib, 14,2 mlrd. so'mga yetdi yoki 2019- yilning mos davriga nisbatan 5,5 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
(2020- yil yanvar)**

2020- yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 112,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019- yilning shu davriga nisbatan 7,8 % ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra 90,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 99,8 % ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 80,4 % ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkichni tumanlar bo'yicha tahlil qilganda, Beruniy, Qonliko'l, Qorao'zak, Kegayli, Qo'ng'irot, Mo'ynoq, Nukus, Chimboy, Shumanoy va Ellikqal'a tumanlarida 100 % ni tashkil etgan.

**Yirik korxonalar va kichik biznes subyektlarining
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (% da)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 19,6 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Xo'jayli tumanida (jamiga nisbatan ulushi – 91,5 %), Nukus shahri (4,4 %) va Amudaryo tumanida (3,7 %) kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes subyektlari (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	112 616,2	92,2	22 088,7	70,2	90 527,5	99,8
<i>Shahar va tumanlar:</i>						
Amudaryo	1 943,9	182,8	72,6	101,9	1 871,3	188,7
Beruniy	7 250,3	113,1	-	-	7 250,3	113,1
Bo'zatov	-	-	-	-	-	-
Qonliko'l	2 147,0	157,7	-	-	2 147,0	157,7
Qorao'zak	1 300,3	5,0 b.	-	-	1 300,3	5,0 b.
Kegayli	87,1	114,5	-	-	87,1	114,7
Qo'ng'irot	3 713,1	144,0	-	-	3 713,1	144,0
Mo'ynoq	317,8	3,0 b.	-	-	317,8	3,0 b.
Nukus	7 898,0	85,6	-	-	7 898,0	85,6
Taxiatosh	2 298,4	89,1	29,1	27,1	2 269,3	91,8
Taxtako'pir	1 038,4	107,6	12,4	83,5 b.	1 026,0	106,3
To'rtko'l	7 419,3	163,2	121,1	20,5	7 298,3	184,4
Xo'jayli	21 609,6	90,5	19 776,0	88,4	1 833,6	121,6
Chimboy	2 246,6	124,9	-	-	2 246,6	142,1
Shumanoy	40,1	186,6	-	-	40,1	186,6
Ellikqal'a	5 793,2	96,1	-	-	5 793,2	96,1
Nukus sh.	4 7513,1	77,6	2 077,6	25,6	45 435,4	85,5

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining 2019- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (% da)



Ulgurji tovar aylanmasida 2019- yilning shu davriga nisbatan eng quiyi o'zgarish sur'atlari Nukus shahrida (77,6 %), Nukus (85,6 %), Taxiatosh (89,1 %) va Xo'jayli (90,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.: 71 230-82-06